
Chetdan olib kirilayotgan urug'lar va ko'chatlar bojxona to'lovlaridan ozod etildi.

O'zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi Prezident Farmoni bilan endilikda "urug'-ko'chat-mahsulot yetishtirish-tayyorlash-saqlash-qayta ishlash-transportirovka qilish-bozorga yetkazish" tamoyili bo'yicha uzluksiz zanjirni shakllantirishni ko'zda tutuvchi meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etishning klaster usuli joriy etiladi.

Shu maqsadda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va tumanlar hokimlariga tegishli tartibda chigitdan bo'shagan yerlarda qishloq xo'jaligi ekinlarini ekishda meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va sotish, jumladan eksport qilishni tashkil qilish, zamonaviy resurs va suvni tejavchi texnologiyalarni joriy etish, yangi ish o'rinlari yaratish vazifalarini o'z zimmasiga oladigan xo'jalik yurituvchi subyektlariga (o'zaro bog'liq korxonalar guruhiga) birinchi navbatda yerdan uzoq muddatli ijara shartlarida foydalanish huquqini taqdim etish vazifasi yuklandi.

2021 yil 1 yanvarga qadar:

ko'chatxonalar va issiqxonalarda urug', ko'chat va payvandtag yetishtiruvchi va ularni qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilariga yetkazib beruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlari barcha turdagi soliq va yig'imlar to'lashdan;

chetdan olib kirilayotgan urug'lar, ko'chatlar va payvandtaglar, mineral o'g'itlar, o'simliklarni kimyoviy himoyalash vositalari, zamonaviy energiya tejavchi issiqxonalar va ularning butlovchi qismlari ilovaga muvofiq bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig'im bundan mustasno);

import bo'yicha olib kirilayotgan, meva-sabzavot mahsulotlarini tashishga ixtisoslashgan transport vositalari (TIF TN kodlari - 870120, 870421, 870422, 871639) bojxona to'lovlari va Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar to'lashdan ozod etildi.

Mabaa: uza.uz

2018-03-30 10:17:21